

**O‘ZBEKISTON PSIXOLOGIYASIDA OILAVIY NIZOLAR
MASALALARINING O‘RGANILISHI**

Omonova Orzudil

Qarshi xalqaro universiteti o‘qituvchisi

**STUDY OF FAMILY CONFLICT ISSUES IN UZBEKISTAN
PSYCHOLOGY**

Omonova Orzudil

Teacher at Karshi International University

ANNOTATSIYA

Maqolada o‘zbek oilaridagi nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va ularni mamlakatimiz psixolog olimlari tomonidan o‘rganilishi haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan. Muallif mazkur muammo hozirgi kunda juda dolzarb ekanligi, uni o‘rganish psixologlar oldida muhim vazifalarni qo‘yayotganligi, mamlakatimizdagi har bir oilaning bir butunligi va barqarorligini saqlab qolish borasidagi tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yanada kuchaytirish zarurligini ta’kidlagan.

Kalit so‘zlar: oila, nikoh, er-xotin, shaxslararo munosabat, tarbiya, jinsiy hayot, oila barqarorligi, fe’l-atvor, muvaffaqiyatsiz nikoh, nizo, ajralish.

ANNOTATION

The article contains important information about the socio-psychological characteristics of conflicts in Uzbek families and their study by psychologists in our country. The author emphasized that this problem is very relevant today, that its study poses important tasks for psychologists, it is necessary to further strengthen the organizational and legal mechanisms for maintaining the integrity and stability of every family in our country.

Key words: family, marriage, couple, interpersonal relationships, education, sexuality, family stability, character, failed marriage, conflict, divorce.

Mutaxassislarning e'tirof etishicha, oila va uning mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri oilaviy nizolar hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, ijtimoiy hayotda kishilar o'rtasida oila va nikoh munosabatlari bilan bog'liq turli anglashmovchiliklar, nizolar va o'zaro kelishmovchiliklar uchrab turadi. Odatda, nizo deb, qarama-qarshi yo'nalgan qarashlarga, noxush hissiy kechinmalar bilan bog'liq guruhlararo yoki shaxslararo munosabatlar orqali ifodalanuvchi to'qnashuvlarga aytiladi. Psixologik nuqtai nazardan talqin etganda, odamlarga halokatli ta'sir etadigan jihat bu – nizolarning o'zi emas, balki ularning oqibati hisoblanadi. Nizolar oqibatida inson ruhiyatida qo'rqinch, vahima, adovat kabi salbiy hislar yuzaga keladi. Agar mazkur kechinmalar kuchli bo'lsa va uzoq muddat davom etsa, odamda himoya reaksiyasi paydo bo'lishi va mustahkamlanishi mumkin.

Mustaqillik yillarida oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan nizoli holatlarni o'rganish bo'yicha mamlakatimiz psixologlari tomonidan ham bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Shu o'rinda G'.B.Shoumarov, E.G'.G'oziyev, A.M.Jabborov, N.A.Sog'inov, V.M.Karimova, B.Umarov, F.A.Akramova, M.X.Fayziyeva, X.Karimov, R.S.Samarov, N.Salayeva, F.R.Ro'ziqulov, I.A.Jabborov va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan ishlarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Biz quyida mamlakatimiz psixologlarining oilaviy nizolar masalalari bo'yicha amalga oshirgan ilmiy tadqiqot ishlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

M.Fayziyevaning tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, o'zbek oilalarida shaxslararo munosabatlar barqarorligini belgilashda er-xotin munosabatlaridagi o'zaro hurmat va ishonch, bir-birini yaxshi tushunish, farzandlar, muomala odobi, onglilik va ma'naviy axloqiy mavqe, uning moddiy ta'minlanganligi, uy-joy bilan ta'minlanganlik, rollar taqsimotining mosligi, jinsiy moslik muhim omillar hisoblanadi. Muallif, oilaviy nizolarning shakllanishi va ularning buzilib ketishida er-xotin fe'l-atvorining mos kelmasligi, farzandsizlik, sevgi va mehr-muhabbatning yetarli emasligi, uning budjetini oqilona boshqara olmaslik asosiy omillar bo'lib,

ro'zg'or ishlarining saranjom-sarishta va orasta emasligi, iqtisodiy ta'minotdagi kamchiliklar, rashk va ishonchsizlik, ota-onalarning er-xotin munosabatlariga aralashuvi, dunyoqarash va maslaklarning nomuvofiqligi, jinsiy nomoslik kabi omillar ham oilaviy munosabatlarda ziddiyatlarni kelib chiqarishda muhim o'rin tutadi, deydi [4].

N.A.Sog'inovning izlanishlarida o'zbek oilasida juftliklar o'rtasidagi o'zaro tushunish, o'zaro hurmat va hissiy yaqinlik, er-xotinlarning nikohdan qoniqqanlik xususiyatlari kabi omillarning oila mustahkamligiga ta'siri, ularning o'zaro munosabatlarida nizolar paydo bo'lishining etnopsixologik komponentlari o'zbek etnosi misolida ilk bor o'rganilgan. Ushbu tadqiqot ishi sobiq ittifoq miqyosida u yoki bu millatning etnik xususiyatlarini namoyon bo'lishi tadqiq etilgan ilk ijtimoiy-psixologik tadqiqotlardan biri ekanligi e'tirof etiladi. Unda yoshlarning oila qurish motivlari, nikoh oldi omillari, nikohdan qoniqqanlik darajalari, er-xotin o'rtasida "o'zaro tushunish", "emotsional intilish", "o'zaro hurmat" ko'rsatkichlari shahar va qishloq oilalari misolida qayd etib o'tilgan. Tadqiqotda oila qurish niyatidagi yoshlar, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz nikohlar, ajralishgan juftlar o'rganilgan[3].

X.Karimovning fikricha, o'zbek oilasida er-xotin orasidagi nizolar boshqa millat vakillari (rus, ukrain va boshqalar) oilalaridagi nizolardan farqlanishi bilan ajralib turadi. Olib borgan tadqiqotlarimizda o'zbek oilalari o'ziga xos etnopsixologik xususiyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turishi, bunda er-xotin orasida nizolarning kelib chiqishiga milliy-madaniy muhitga xos bo'lgan nikoh oldi omillarining xususiyatlari, ya'ni ba'zida tanishish imkoniyatining bo'lmasligi yoki qisqaligi ham ta'sir etishi, natijada yuzaga kelgan nizo sabablarini tomonlar o'zidan qidirmasligi, uni bartaraf etishda ota-onalarga tayanish, oiladagi o'zaro munosabatlar qo'pollik asosiga qurilishi va boshqa bir qator salbiy holatlar yuzaga kelishi kabi holatlar aniqlandi. Bundan tashqari, oilaviy nizolar, ko'p holatlarda, bir-birini tinglamaslik, ya'ni bir-birlarining istaklarini "eshitmaslik", hayotga bo'lgan qarashlarning farqlanishi, o'ta qattiq nazorat, ta'bi ustidan kulish, e'tibor

yetishmasligi, ish faoliyatidagi muammolar tufayli yuzaga kelishi mumkinligi qator tajribalarda o'z isbotini topgan[2].

V.Karimovaning oila va oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik omillari va oqibatlariga bag'ishlangan asarlarida oilada yoshlarni gender munosabatlarga tayyorlash, gender tasavvurlarning shaxs tarbiyasidagi o'rni, er-xotin va oiladagi sibling munosabatlarning bola shaxsiga ta'siri masalalari ko'proq e'tibor qaratadi. Uning fikricha, oiladagi o'zaro munosabatlarning asosini tashkil etgan oilaviy rollarga oid tasavvurlar va ularning differentsiatsiyasi o'zining yosh, hududiy va jinsiy xususiyatlariga ega bo'lib, ular avvalo har bir oilaning ruhiy ma'naviy muhiti, u yerdagi milliy qadriyatlar, an'analar, rasm-rusmlar qanchalik saqlanib qolganligiga ham bog'liqligi asoslangan. Muallif nikoh yoshigacha bo'lgan yoshlar bilan oilali er-xotinlarning oilaviy ijtimoiy tasavvurlari o'rtasidagi asosiy farqlarni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilib, uning sabablarini ko'rsatib o'tgan[1].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek oilalarida ma'naviy-axloqiy muhitni barqarorlashtirish va gender tenglikni ta'minlash, nizoli holatlar kelib chiqishining oldini olishda erkakning ham, ayolning ham o'z o'rni bor. Oilaviy hayot masalalarida erkak va ayol jamiyatdagi meyorlarga amal qilishi, zimmasidagi burch va vazifani qonun doirasida, adolat tamoyillariga rioya qilgan holda bajarishi, bir-birlarini tushunishi, hurmat qilishi oilaviy masalalarni birgalikda hal qilishga harakat qilishi oilada yuzaga keladigan har qanday nizo, ixtilof va muammolarni tinch yo'l bilan bartaraf qilishga harakat qilishi maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, mahallalarda nizoli oilalar bilan ishlashni to'g'ri yo'lga qo'yish, joylarda aholi orasida maktab psixologlari, o'qituvchilar va tarbiyachilar hamda mahalla faollari ishtirokida oilaviy munosabatlarda nizoning salbiy oqibatlari haqida suhbatlar o'tkazib borish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimova.V. Ijtimoiy psixologiya. –T.: “Fan va texnologiya”, 2012, – 172 b.
2. Karimov X.K. O‘zbek oilalarida er-xotin nizolarining ijtimoiy psixologik xususiyatlari: Psixol. f. n. ilmiy daraja. olish uchun yozilgan dis.. – T.: TGPI 1994. – 142 b.
3. Соғинов Н.А. Социально-психологические особенности удовлетворенности бракам в узбекской семье. Автореф. дисс. канд. психолог. наук. – К.: 1990, –19 стр.
4. Fayziyeva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2007, –144 b.
5. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun. – T.: “Sharq”, – 240 b.